



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 14-oktabr, № 218 (8561)

Shanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## MDH SAMMITI — O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH UCHUN QULAY MULOQOT MAYDONI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev  
13-oktabr kuni Bishkek shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi  
Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.



Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov raisligida o'tgan sammit ishida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va MDH bosh kotibi Sergey Lebedev ham qatnashdi.

MDH doirasidagi ko'p qirrali munosabatlarning holati va istiqbolari yuzasidan fikr almashildi, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Hamdo'stlik doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi.

O'zbekiston Prezidenti mavjud imkoniyatlarni birgalikda baholash va o'zaro muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish uchun MDHdek noyob

platformani ishga solish muhimligini alohida qayd etdi. Shu ma'noda, ko'p tomonlama hamkorlikning yangi uzoq muddatli kun tartibini ishlab chiqish maqsadida MDH mamlakatlarining yetakchi tahlil markazlari va ekspertlarining konferensiyasini tashkil etish taklif qilindi.

Mamlakatimiz yetakchisi Hamdo'stlik mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

Tashkilot makonida istisno va cheklovlarisiz to'laonli erkin savdo

hududini shakllantirish muhimligiga e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan tegishli shartnoma qoidalarini qayta ko'rib chiqish taklif etildi.

O'zbekiston Prezidenti mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlashda mavjud mexanizmlarni samarali ishga solishga chaqirdi va uni rag'batlantirishning yangi vositalarini taklif qildi.

Davlatimiz rahbari o'zaro investitsiyalarni rag'batlantirish va loyihalarni ilgari surish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish hamda MDH mamlakatlarining Sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlanmalari forumini o'tkazish tashabbusini ilgari surdi.

Energetika va oziq-ovqat sohasida hamkorlik qilish, iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida ilg'or texnologiyalarni joriy etish va kooperatsiyani kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorlik bo'yicha yangilangan dasturni hamda Agrosanoat majmuidagi kooperatsiyaning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi bitimni tayyorlash taklif qilindi.

O'zbekiston yetakchisi hududlararo hamkorlikni faollashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tayyorlash tashabbusi bilan chiqdi, transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, yo'lovchi va yuk tashishni ko'paytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ko'rsatib o'tdi.

Global iqlim ishi oqibatlariga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish muhimligi qayd etildi. Kelgusi yilda Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilgan BMT shafeligidagi Xalqaro iqlim forumi doirasida MDH makonidagi ekologik xavf-xatarlarga bag'ishlangan maxsus yalpi sessiyani tashkil etishga tayyorlik bildirildi.

Gumanitar soha haqida so'z yuritilar

ekan, 2024-yilda "Hamdo'stlikning madaniyat poytaxti", deb e'lon qilingan Samarqand shahrida MDH madaniyat, san'at va kino haftaligini o'tkazish taklif qilindi.

Shuningdek, kelgusi yilda MDHning yoshlar poytaxti maqomini olgan Toshkent shahrida bir qator yoshlarga oid tadbirlar, shu jumladan, futbol musobaqasi bo'lib o'tadi.

Mamlakatimiz yetakchisi o'z so'zida ta'lim sohasida va sayyohlik almashinuvini rivojlantirish borasida ham muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Nutqining so'ngida O'zbekiston Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Prezidentini 2024-yilda Tashkilotga raislikni qabul qilib olgani bilan tabrikledi.

Sammit yakunida MDH doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qator bitim va qarorlar qabul qilindi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan hisssasi uchun tashkilotning oliy mukofoti — MDH Faxriy nishonini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash joizki, keyingi bir necha yilda O'zbekistonning Hamdo'stlik ishidagi ishtiroki faollashadi.

Mamlakatimiz MDHning tarmoqlar bo'yicha hamkorlikning 24 ta organiga qo'shildi, 65 ta tuzilmasi faoliyatida to'liq ishtirok etmoqda.

Ushbu davrda O'zbekiston Prezidenti tomonidan ko'plab muhim yo'nalishlar yuzasidan qariyb 70 ta tashabbus ilgari surildi. Ularning aksariyati Hamdo'stlikka a'zo

mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ro'yobga chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev MDH sammiti doirasida Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Yetakchilar O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi ko'p qirrali aloqalar jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

O'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari o'smoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish davom etmoqda.

Madaniyat, kinematografiya va sport sohasida qo'shma tadbirlar muntazam o'tkazib borilmoqda.

Davlat rahbarlari savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan choralarini ko'rish, jumladan, Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi, Hududlar forumi hamda O'zbekiston va Belarus yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlarining uchrashuvini tashkil etish muhimligini qayd etdilar.

MDH va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashildi.

Bo'lajak tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iz Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Qadrlı hamkasblar!

Avvalo, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti, hurmatli Sadir Nurg'ojoyevich Japarovga an'anaviy iliq qabul va sammitni yuksak darajada tashkil etgani uchun bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Biz O'zbekistonda Qirg'izistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga raisligining samarali yakunlarini yuksak baholaymiz.

Bu davrda mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi, ko'p tomonlama qator muhim hujjatlar, jumladan, Xizmatlarning erkin savdo zonasini ta'minlash to'g'risidagi bitim qabul qilindi.

Biz, shuningdek, kun tartibini va ushbu yig'ilish uchun tayyorlangan qarorlar loyihalarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Bizning uchrashuvimiz global geosiyosiy keskinlik kuchayayotgan bir sharoitda o'tmoqda. Barcha hamkasblarim o'z chiqishlarida oldimizda turgan umumiy tahdid va xavf-xatarlarni qayd qilib o'tdilar.

Ming afsuski, dunyoning turli mintaqalaridagi keskinlashib borayotgan ziddiyatlarning oqibatlari barcha mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunday vaziyatda biz MDH bo'yicha sheriklarimiz bilan hamkorlikning yangi yo'llari va mexanizmlarini izlashda davom etamiz.

Gap, avvalo, muqobil savdo-logistika yo'nalishlarini shakllantirish, qo'shilgan qiymatning qisqqa va yanada samarali zanjirlarini yaratish, mamlakatlarimiz iqtisodiyotidagi bir-birini to'ldiradigan zaxiralardan imkon qadar yuqori darajada foydalanish, biznes aloqalarini rag'batlantirish haqida bormoqda.

Biz paydo bo'ladigan xavf-xatarlarni birgalikda baholash, muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar va nostandart qarorlarni qabul

qilish uchun MDH doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikning noyob platformasi to'liq ishga solinishidan manfaatdormiz.

Shu munosabat bilan Hamdo'stlikning uzoq muddatli yangi kun tartibini ishlab chiqish uchun mamlakatlarimizning yetakchi tahlil markazlari va ekspertlari ishtirokida konferensiya tashkil etish imkoniyatini ko'rib chiqishni taklif qilaman.

Qadrlı hamkasblar!

Joriy yil boshidan buyon O'zbekistonning Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tashqi savdo hajmi atigi 5 foizga oshdi. Shu bilan birga, o'sish sur'atlarining sekinlashish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Yuqori darajadagi ekspertlarimiz uchrashuvlari natijalari to'laonli erkin savdo zonasini shakllantirish yo'lida hali ham ko'plab to'siqlar mavjudligidan dalolat beradi.

Biz quyidagilarni taklif etamiz:

**birinchidan**, Erkin savdo hududi to'g'risidagi shartnomaning tovarlarni olib qo'yishga doir qoidalarini qayta ko'rib chiqish. Shartnoma imzolanganidan buyon yetarlicha vaqt o'tdi hamda ushbu hujjatni bizning asosiy maqsad va vazifalarimiz bilan to'liq muvofiqlashtirish vaqti keldi;

**ikkinchidan**, import o'rnini bosishga qaratilgan milliy dasturlarni o'zaro uyg'unlashtirish;

**uchinchidan**, davlat xaridlari bozoriga imtiyozli kirish huquqini o'zaro kelishuv asosida taqdim etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

**to'rtinchidan**, qo'shma ulgurji taqsimlash va logistika markazlarini tashkil etishni qo'llab-quvvatlash dasturini qabul qilish;

**beshinchidan**, elektron savdoni rivojlantirishni, jumladan, mavjud platformalarni kengaytirish yo'li bilan rag'batlantirish.

Yana bir muhim jihat bu — o'zaro savdodagi texnik to'siqlar va muvofiqlikni

baholash bo'yicha ishlar natijalarini tan olish to'g'risidagi MDH bitimlarining qabul qilinishini jadallashtirishdan iborat.

Ushbu masalalarning barchasi Hamdo'stlik Iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi zarur.

Sanoat kooperatsiyasi istiqbollari masalasiga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

Bugungi kunda MDH mamlakatlari bilan qo'shma investitsiya loyihalariga doir portfelimiz hajmi 25 milliard dollardan oshdi.

Ya'qinda qabul qilingan Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, Hamdo'stlikka a'zo davlatlarining Sanoat siyosati bo'yicha kengashi doirasida o'zaro investitsiyalarni rag'batlantirish va loyihalarni ilgari surish hamda texnoparklarni tashkil etish bo'yicha Qo'shimcha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif qilaman.

Bunda xaridlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sug'urta hisobidan qoplab berish va off-teyk xarid masalalarini puxta o'yab ko'rish muhimdir.

Kelgusi yilning aprel oyida Toshkent shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan "INNOPROM" sanoat haftaligi doirasida MDH mamlakatlarining sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlanmalari forumini o'tkazishga ham tayyormiz.

Energetika sohasida MDHga a'zo har bir mamlakatning elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste'mol qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, energiya tizimlarini yaxlit holda ishlay oladigan sharoitlarni yaratish zarur, deb hisoblaymiz.

Yana bir ustuvor vazifa — Hamdo'stlik davlatlarida iste'molchilarni yuqori sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat.

Shu munosabat bilan agrosanoat komplekslari, logistika va "ekspres" koridorlarning o'zaro bog'liqligini kuchaytirish,

tarmoqni texnologik modernizatsiya qilish va tizimli ilm-fan almashinuvini masalalarini hal etish talab etiladi.

Amaldagi tarmoq kengashi doirasida Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi yangilangan hamkorlik dasturini va Agrosanoat sektorida kooperatsiyaning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi bitimni tayyorlashni taklif qilamiz.

Hududlararo hamkorlik juda katta imkoniyatga ega ekanini ta'kidlab o'tmoqchiman. Bunday sheriklikni qo'llab-quvvatlash choralarini o'z ichiga olgan alohida "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish, jumladan, hududlarning birinchi Forumini, ko'rgazma va yarmarkalarni hamda ishlabarmon doiralari vakillarining o'zaro tashriflarini o'tkazish zarur, deb hisoblaymiz.

Transport sohasida quyidagi imkoniyatlarni yaratish tarafdorimiz:

— transportning barcha turlarida multimodal tashuvlarni tashkil etish orqali transport koridorlarini rivojlantirish;

— asosiy mintaqaviy koridorlar orqali yuklarni tashishda biznes uchun jolibador shartlarni shakllantirish;

— yo'lovchi va yuk tashishda boshqarish jarayonlarini va ko'rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirish;

— transport infratuzilmasi va harakat tarkibini modernizatsiya qilish dasturlari va loyihalarini amalga oshirish.

Biz, shuningdek, MDHning Davlatlararo ekologik kengashiga O'zbekistonning qo'shilishi to'g'risida qaror qabul qildik.

Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilgan Xalqaro iqlim forumi doirasida Hamdo'stlik davlatlari hududidagi ekologik tahdid va xavf-xatarlarga bag'ishlangan maxsus yalpi sessiyani o'tkazishni taklif qilamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Qadimiy Samarqand shahriga 2024-yilda "Hamdo'stlikning madaniyat poytaxti" maqomini berish masalasini qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizlarga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Shu munosabat bilan kelgusi yil bahorda Samarqandda MDH davlatlarining madaniyat, san'at va kino haftaligini o'tkazishni taklif qilamiz.

Yoshlar siyosati sohasidagi hamkorlikni faollashtirish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga egadir.

Biz yangi qo'shma loyihamiz doirasida kelgusi yilda "Hamdo'stlikning yoshlar poytaxti" deb e'lon qilingan Toshkent shahrida tadbirlarga boy dasturni tayyorlaymiz.

Shuningdek, "Hamdo'stlik kubogi" futbol turnirini qayta tiklash va yoshlarimiz jamoalari o'rtasida navbatdagi uchrashuvlarni O'zbekistonda o'tkazishni taklif qilaman.

Xalqaro rus tili tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomani qabul qilishni qo'llab-quvvatlaymiz.

Rus tilida ta'lim beradigan texnik mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash dasturini ishlab chiqishni muhim, deb hisoblaymiz.

Hamdo'stlikning yagona turistik makonini targ'ib qilish doirasida qo'shma dasturlar va turistik mahsulotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etishga tayyormiz.

Qadrlı hamkasblar!

Rossiya Federatsiyasi tomonidan kelgusi yil uchun Hamdo'stlikka raislikning qabul qilib olinishi munosabati bilan hurmatli Vladimir Vladimirovich Putin nomiga bildirilgan tabrik so'zlariga qo'shilaman.

Ushbu muhim va mas'uliyatli vazifani bajarishda chin dildan omadlar tilayman.

So'zimning yakunida O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish tarafdori ekanini yana bir bor tasdiqlayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Oliy Majlis  
SenatidaDAVLAT ORGANLARI  
VA TASHKILOTLARIDA  
OCHIQLIK  
QANCHALIK  
TA'MINLANMOQDA?

Oliy Majlis Senatida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari raislari uchun seminar tashkil etildi. Unda senatorlar, mahalliy Kengash deputatlari, OAV vakillari va ekspertlar qatnashdi.

Tadbir davlat organlari va tashkilotlarining hududiy tuzilmalari tomonidan ochiqlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlarni kuchaytirish va mahalliy Kengashlarning har bir sessiyasini jonli efir orqali keng jamoatchilikka yetkazish jarayonini yanada tezlashtirish kabi masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, joriy yilda o'tgan yil yakunlari asosida davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni baholash yuzasidan "Ochiqlik indeksi" natijalari e'lon qilingani muhim qadam bo'ldi. Ammo hali oldinda bajariladigan vazifalar ko'p.

Shundan kelib chiqib, doimiy komissiya raislariga davlat organlari va tashkilotlari hududiy tuzilmalarida ochiqlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlarni samarali nazorat qilish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Shuningdek, yig'ilishda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan sessiyalarni mahalliy telekanallar yoki internet jahon axborot tarmog'i orqali jonli efiirga uzatish amaliyoti yo'lga qo'yilgani e'tirof etilgani holda, bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish zarurligi aytib o'tildi.

O'z navbatida, seminar "Yagona integrator Uzinfocom" MCHJ mas'ul xodimi tomonidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining "Kengash.gov.uz" portali faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Tadbir yakunida mahalliy davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish ishlariga e'tiborni kuchaytirish, doimiy komissiya raislari, kotibiyat mudirlari hamda axborot xizmatlari rahbarlarining soha mutaxassislari bilan hamkorligini bugungi kun talabi darajasida kuchaytirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

## Parlament komissiyasi

INSON HUQUQLARI SOHASIDA AMALGA  
OSHIRILAYOTGAN ISHLAR MUHOKAMA QILINDI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi bo'yicha Parlament komissiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, Parlament komissiyasi a'zolari, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Adliya vazirligi mutasaddilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Parlament komissiyasi raisi A. Saidov yig'ilishni ochar ekan, xalqaro majburiyatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasidagi ishlar muhokama qilindi.

Yig'ilishda dastlab "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Uchinchi davriy ma'ruzasini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha BMT iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitasining

yakuniy tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Milliy harakatlar rejasini tegishli birlamchi belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasidagi ishlar muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, Milliy harakatlar rejasining 9.d-bandida kamsitishdan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Adliya vazirligining tahlillariga ko'ra, milliy qonunchilik hujjatlarida kamsitishga qarshi hamda kamsitishdan jabrlanganlarning huquqlarini kafolatlovchi normalar yetarlicha ishlab chiqilgan.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ma'muriy, jinoyi va fuqarolik kodekslarida shaxsni kamsitish bilan bog'liq

holatlar uchun javobgarlik borligi belgilangan. Shu bilan birga, tegishli sud protsessual qonunchilik hujjatlarida ham har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun tegishli sudga murojaat etish huquqi kafolatlangan.

Komissiya a'zolari Prezidentimizning 2023-yil 12-maydagi tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi"da belgilangan vazifalarning amalga oshirishi yuzasidan Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning axborotini ham eshitildi.

Qayd etilganidek, mazkur dasturning 6 bandi bo'yicha ijro muddati yakunlanib, ishlar to'liq bajarilgan. Farmon ijrosini ta'minlash davomida 20 dan ortiq konferensiya, davra suhbat, seminar-treninglar va targ'ibot ishlari olib borilgan. 24 ta bandni amalga oshirish bo'yicha esa ishlar izchil davom etmoqda.

Shu bilan birga, tadbirlar dasturining 22-bandini ijrosini ta'minlash doirasida joriy yilning 25-26-may kunlari Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Yevropa Kengashining Huquq orqali demokratiya uchun Yevropa komissiyasi (Venetsiya komissiyasi) hamkorligida xalqaro konferensiya ham tashkil etildi. Uning doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi hamda Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Shuningdek, komissiya a'zolari Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi va uning "Yo'l xaritasi" bandlemlarining bajarilishi yuzasidan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining umumlashtirilgan ma'lumotini ham muhokama qilindi.

78 banddan iborat Milliy strategiyada 33 ta qonun hujjati loyihasini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Yangi qonun hujjatlari loyihalari 20 ta, amaldagi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha



qonun hujjatlari loyihalari 4 ta, amaldagi qonunlarning yangi tahrirdagi loyihalari 9 tani tashkil etadi. Qolaversa, o'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining 20 ta qonuni qabul qilindi.

Inson sha'ni, qadr-qimmatini bog'liq har qanday kamsitishlarning oldini olish, nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun imtiyozlar berish, bolalar va ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tengligiga erishish mazkur "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarda ustuvorlik kasb etadi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 25-bandini ijrosini ta'minlash

maqsadida Milliy markaz tomonidan tayyorlangan "Bola huquqlarini o'rgatish" va "Bola huquqlari" qo'llanmalari to'g'risidagi ma'lumotnoma ham muhokama qilindi.

Bugungi kungacha mamlakatimiz inson huquqlariga oid 80 ga yaqin xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Mazkur xalqaro huquqiy hujjatlarda bola huquqlariga oid xalqaro normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur xalqaro hujjatlarda, o'z navbatida, bola huquqlari bo'yicha milliy qonunchilikni takomillashtirishga yordam bermoqda.

Yig'ilishda kun tartibidagi masalalar yuzasidan Parlament komissiyasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## DAXLDORLIK HISSI VA MAS'ULIYAT

Shu kunlarda regulation.gov.uz portaliga hamda Qonunchilik palatasining parlament.gov.uz rasmiy veb-saytiga jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi yuzasidan fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, turli kasb egalari, yoshlardan ko'plab aniq takliflar, asosli fikr-mulohazalar, munosabatlar kelib tushmoqda. Bu haqda gazetamizning avvalgi sonlarida ham ma'lumotlar bergan edik.

Qayd etish joiz, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan qonunchilik

tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan parlament faoliyatiga oid qonun loyihasi bilan 14 ta qonun (jumladan, Saylov kodeksi)ga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilanmoqda.

Qonun loyihasiga oid taklif va munosabatlar 12-oktabr kuni holatiga ko'ra, jami 371 tani tashkil etmoqda. Ularning 211 tasi regulation.gov.uz portaliga hamda 160 tasi parlament.gov.uz veb-saytiga kelib tushgan. Tahlillarga ko'ra, ularning aksariyatini loyihadagi normalarni qo'llab-quvvatlash barobarida, uni yanada takomillashtirishga oid takliflar tashkil etmoqda.

Quyida yurtdoshlarimizning qonun loyihasi yuzasidan bildirgan fikrlari bilan tanishasiz.

## Fikr

Ruiddin RAUPOV,  
tadbirkor:

— Qonun loyihasi ikkita saytga muhokama uchun qo'yilgani uni yanada chuqur ko'rib chiqishimiz va fikr bildirishimizga keng platforma yaratadi. Mazkur hujjat matni bilan to'liq tanishib, ayrim xulosalarga keldim. Jamiyatning vakili sifatida bir qator takliflarim bor.

Masalan, loyihadagi siyosiy partiyalar vakillari kengashi o'z majlisida Qonunchilik palatasi Spikeri va uning

o'rinbosarlari lavozimlariga nomzodlarni deputatlar orasidan ko'rsatish masalasini ko'rib chiqadi. Siyosiy partiyalar vakillari kengashining majlisida Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiyaning vakili raislik qiladi, deyilgan.

Taklifim shuki, aksincha qonunlarni qabul qilishda va jamiyat boshqaruvida eng faol bo'lgan siyosiy partiyalar Spiker va uning o'rinbosarligiga nomzodlar ko'rsatilishini yo'lga qo'yishi kerak.

Zamira TOJIYEVA,  
jurnalist:

— Qonun loyihasi ijtimoiy tarmoqlarda qizg'in muhokama bo'lganini kuzatganimda, menda ham ko'plab munozarali savollar tug'ilgandi. Ayrim normalar no'rin talqin qilinganiga loyiha matni bilan to'liq tanishgach, amin bo'ldim. Masalan, taklif etilayotgan qoidalar parlamentning hozirgi emas, balki keyingi chaqirig'iga amal qilinishi qayd etish joiz.

Loyihada Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari o'z vazifalarini bajarish davrida siyosiy partiyaga a'zolikni to'xtatib turish, fraksiya tarkibiga kirishi, qo'ylalarga qo'shilishining tarkibiga saylanishi mumkin emasligi aytilgan.

Shu yerda savol tug'iladi. Aslida bo'lajak Spiker o'rinbosari deputatlikka muayyan joydagi (okrug, saylov uchastkasi) saylovchilar tomonidan saylangan. Endi yuqoridagi o'zgartirish ushbu deputatni

saylagan elektorat manfaati himoyasiga ta'sir qilmaydimi, ularning muammolari kim tomonidan o'rganiladi va yechimi qanday hal etiladi? Qo'mitalar tarkibidan o'rin o'lasligi mantiqan to'g'ri bo'lishi mumkin. Lekin partiya a'zosi sifatidagi faoliyatini to'xtatib turishi ma'qul bo'lmas kerak.

Yana bir norma — qonun loyihasini Qonunchilik palatasi qo'mitalarida muhokama qilish ochiq o'tkazilishini qo'llab-quvvatlayman. Shuningdek, unda belgilanayotgan muhokamalarga qonun loyihasini kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti vakillari, fuqarolik jamiyati institutlarining va ilmiy-tadqiqot muassasalarining vakillari, shuningdek olimlar, mutaxassislar ham taklif etilishi mumkin, degan oxirgi so'z o'rniga taklif etiladi, deyilsa to'g'ri bo'ladi. Chunki qonunchilikda mavhum so'z ishlatilishi mumkin emas.

Islom OQNAZAROV,  
Yoshlar parlamenti a'zosi:

— Qonun loyihasidagi ayrim normalarni aniqlashtirish kerak. Masalan, Bosh prokuror va shu kabi lavozimlarga tayinlashda Prezident tavsiya etgan nomzodlar Senatga kiritilishi yoki Senat muhokama qilgan nomzodni Prezident tasdiqlashi haqidagi qismlarga o'zgartirish kiritish lozim. Nomzodni tasdiqlashni maslahatlashuvlardan keyin to'laigicha Senatga yuklash lozim.

Yana bir masala — parlament quyi va yuqori palatalari tarqatib yuborilgan taqdirda birida 1 oy muddatda, ikkinchisida 2 oy muddatda qayta tashkil etish nazarda tutilayotganini asoslantirish kerak. Har ikki palata qayta shakllantirilishi uchun maqbul bir muddat belgilanishi lozim. Bizingcha, o'rtacha 1,5 oy belgilansa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Loyihada ko'zda tutilgan Spiker o'rinbosarlari soni qisqarishini esa ma'quullayman. Lekin ular faoliyati davomida partiya a'zolik safidan chiqishini mantiqsiz, deb hisoblayman. Chunki ayni bir partiyada a'zolik — lavozimga kelishiga turtki bo'lgan.

Qonun loyihalari muhokamalarida keng jamoatchilik vakillarining ishtirok etishi va daxldorlik nuqtai nazaridan, o'z munosabatlarini bildirishi qabul qilinadigan hujjatlarning hayotiyligini, shaffofligini ta'minlashga yo'l ochadi. Chunki odamlar qonunlar haqida qanchalik ko'p bilsa, anglasa o'shanda huquqiy manfaatlar to'la-to'kis kafolatlanadi.

Shu o'rinda qayd etish joiz, bildirilayotgan takliflar, munosabatlar ayni vaqtda qonun loyihasiga mas'ul — Korpusiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasida batafsil ko'rib chiqilmoqda.

"Xalq so'zi".

## SUV ADOLATLI NARXDA YETKAZIB BERILSA, ISROFGARCHILIK KESKIN KAMAYADI

Bugungi reallik shuki, ichimlik suvi resurslari, ayniqsa, mintaqamizda juda cheklangan va bu bebaho ne'matga aholi ehtiyoji ortgani sari, uning hajmi kamayib boraveradi. Demak, suvni tejash madaniyati turmushimizning ajralmas qismiga aylanmas ekan, bu yo'nalishda sezilarli muvaffaqiyatga erishish qiyin.

## Mushohada

Tejamkorlikka, birinchi navbatda, real tannarxi qoplay oladigan va aholini suvni tejashga undovchi tariflar bilan erishiladi. Masalan, suv ta'minoti yaxshi yo'lga qo'yilgan davlatlarda, tejamkorlik aholi iste'mol madaniyatining ajralmas qismiga aylangan.

Lekin hozirgi suv narxi bilan aholi o'rtasida tejamkorlik madaniyatini shakllantirib bo'lmaydi. Suv qancha arzon bo'lsa, uni shuncha isrof qilamiz. Bu inson tabiatiga xos fazilat. Faqat bozor narxlariga odamlarni suvni tejashga undashi, motivatsiya berishi va rioya qilishi mumkin.

Ichimlik suvi ishlab chiqarish va uni aholiga yetkazib berish, jamlash, filtrlash, har soatda laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazish, minglab kilometrlik quvurlar va nasoslar orqali markazlashgan tarzda tashish singari bir nechta murakkab

bosqichlardan o'tadi. Minglab ishchilar, mutaxassislarning mashaqqatli mehnati evaziga biz xonadonimizda jo'mrakni bir burab, istagancha suvdan foydalanish imkoniga egamiz.

Mamlakatimiz hududida ichimlik suvi ta'minotining 42 foizi yer osti, 58 foizi esa yer usti suv manbalaridan ishlab chiqariladi. "O'zsuva" minot" AJ ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda 1 metr kub ichimlik suvini ishlab chiqarishning o'rtacha tannarxi 1681 so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich hududlar imkoniyatlariga qarab turlicha, masalan: Qoraqolpog'istonda 3221 so'm, Sirdaryo viloyatida 2374 so'm, Toshkent viloyatida 1722 so'm qilib belgilangan.

Savol tug'ilishi mumkin, tannarxning shakllanishiga asosiy ishlab chiqarish xarajatlardan tashqari yana qanday omillar ta'sir qiladi?

Eng avvalo, tariflar so'nggi uch yildan buyon o'zgaray kelayotgani natijasida o'rtacha hisobda 40 foizga oshgan tannarx xarajatlari hisobidan 960 mlrd.

so'm qoplanmasdan qolgan. Bu esa qo'shimcha qarz xarajatlarni keltirib chiqaradi.

So'nggi uch yilda iste'molchilar soni 3,2 mln. nafarga oshgan. Ularga ichimlik suvi yetkazib berish esa yanada ko'proq mehnat va xarajatlarni talab etishi, tabiiy. Bundan tashqari, suvni uzoq masofaga yetkazish juda katta elektr energiyasi talab qiluvchi nasoslar orqali amalga oshiriladi. Qolaversa, bu yil elektr energiyasi xarajatlari oshganini ham eslab o'tish lozim.

Bunga munozam ravishda yuzaga keladigan avariya holatlarini bartaraf etish, tarmoqlarni joriy va mukammal ta'mirlash xarajatlarni ham qo'shsangiz, suvning narxi qanchalik arzon ekanini

anglab yetasiz. Demak, bugun ichimlik suvi ta'minoti tizimida bozor narxlarini mexanizmlarga o'tish vaqti allaqachon yetib kelgan.

Iste'mol uchun real narxlarda pul to'lgan odam hech qachon uni isrof qilmaydi, suvdan xo'jasizlarcha foydalanmaydi. Bu suv ta'minoti tizimidagi korxonalarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash, hali suv yetib bormagan hududlarimizda yangi loyihalarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Aytish joizki, 2022-yildan foydalanuvchilarga ichimlik suvi tarmoqlarini yo'xaligigacha kiritish va 2023-yil 1-yanvardan esa aholiga qiyoslash muddati tugagan suv hisoblagichlarni yangisiga almashtirish "O'zsuva" minot"

AJ va hududiy suv ta'minoti korxonalarining mablag'larini hisobida amalga oshirilishi belgilangan.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, buning uchun respublika bo'yicha 902 mlrd. so'm mablag' talab etiladi. Ushbu mablag' bugungi kungi tarif xarajatlarda ko'zda tutilmagan. Ichimlik va oqova suv inshootlarini qo'riqlash xizmati to'lovlarini so'nggi uch yilda 6-marta oshganligi natijasida 18,5 mlrd. so'm qo'shimcha to'lovlar kelib chiqqan.

Masalarning eng o'ylantiradigan tomoni shundaki, bu xarajatlarni uch yil oldin tasdiqlangan amaldagi tariflarda ko'zda tutilmagan. Soha xodimlarining ish haqi miqdori esa shu davrda o'rtacha 1,3 mln. so'mdan 1,4 mln. so'mga oshirilgan, xolos. Respublika bo'yicha aholiga eng arzon tarif Toshkent shahrida — 1 metr kub suv uchun 400 so'm, eng qimmat tarif qiymati Navoiy viloyatida — 3 ming so'mni tashkil etadi.

Umuman olganda, biz har kuni iste'mol



qiladigan ichimlik suvi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Buning uchun katta mehnat va xarajatlarni talab etiladi. Suv narxlarining bozor shartlariga yaqinlashtirilishi, loqaqal tannarxni qoplaydigan darajaga yetkazilishini bugun davrnang o'zi taqozo etmoqda. Zero, shundagina aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasini oshirish yuzasidan istiqbolli loyihalarni hayotga keng joriy qilish mumkin bo'ladi.

Asosiysi, aholiga suv adolatli narxda yetkazib berilsa, uning qadri oshib, isrofgarchilik keskin kamayadi.

Barno MIRZAMOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati.

## Biz va jahon

## O'ZBEKISTONNING YANGI DOIMY VAKILI YUNESKO BOSH DIREKTORIGA ISHONCH YORLIG'INI TOPSHIRDI

YUNESKO bosh qarorgohida O'zbekistonning yangi doimiy vakili etib tayinlangan Kamol Muxtorov tashkilot bosh direktori Odri Azulega ishonch yorlig'ini topshirdi.

Suhbat chog'ida Odri Azule O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Toshkent va Samarqand shaharlariga tashrii chog'ida o'tkazgan uchrashuvlarini mamnuniyat bilan esga oldi.



Tomonlar O'zbekiston bilan BMT tizimining ushbu nufuzli instituti o'rtasidagi o'z vakolatlarini doirasidagi barcha yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikning bugungi holati va yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qildilar.

YUNESKO rahbari O'zbekistonning tashkilot boshqaruv organlari faoliyatidagi ishtiroki sezilarli darajada faollashganini yuqori baholadi. Mamlakatimiz 2022-yilda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha qo'mitasiga a'zo bo'ldi. Joriy yilning noyabr oyida bo'lib o'tadigan Ijroiya kengashiga saylovda respublika nomzodini ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Shu yilning sentabr oyi boshida YUNESKO bosh qarorgohida buyuk olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligiga bag'ishlangan gala-konsert va ko'rgazma muvaffaqiyatli o'tkazilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bosh direktor Abu Rayhon Beruniy nomidagi YUNESKO — O'zbekiston xalqaro mukofotini ta'is etish bo'yicha Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusini ilgari surishga tayyorligini bildirdi.

YUNESKO bosh konferensiyasining 43-sessiyasini 2025-yilda Samarqandda tashkil etish to'g'risidagi taklifni olqishladi. Jahon madaniy merosi dardonasini bo'lgan Samarqand shahri allaqachon yirik xalqaro tadbirlarga mezbonlik qiluvchi yirik markazga aylangani ta'kidlandi.

Kamol Muxtorov 2018 — 2023-yillarda YUNESKOdagi doimiy vakillikni boshqargan va iyul oyida O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi raisi etib tayinlangan Umid Shodiyev o'rini egalladi.

O'zbekistonning yangi doimiy vakili etib tayinlangan Kamol Muxtorov Samarqand davlat universiteti va London Diplomatik akademiyasini tamomlagan. 2007-yildan boshlab Investitsiya, sanoat va savdo, Tashqi ishlar vazirliklari tizimida ishlagan. O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi maslahatchisi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. 2019-yildan buyon O'zbekiston Prezidenti Administratsiyasida mas'ul lavozimlarda ishlab kelayotgan edi.

"Dunyo" AA.  
Parij

## Imkoniyat

## HUDUDYIY TARMOQLARARO SANOAT KO'RGAZMASI

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-maydagi tegishli qaroriga asosan Qarshi shahrida tashkil etilgan ko'rgazmada neft va gaz sanoati, elektr-energetikasi, kimyo sanoati, charam-poyabzal, to'qimachilik, elektrotexnika va farmatsevtika sanoati korxonalarini o'z mahsulotlari bilan qatnashmoqda.



Shu bilan bir qatorda, Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalar ham iste'molchilarga yangi mahsulotlarini namoyish etmoqda va ishlab chiqarish istiqbollari haqida batafsil ma'lumotlar berishayotir. Misol uchun, Qarshi shahridagi "UzShoes" MCHJ qo'shma korxonasi belaruslik ishlabarmonlar bilan hamkorlikda 500 ming juft poyabzal ishlab chiqarish quvvatini ishga tushirgan.

Ayni vaqtda korxonamizda Germaniya, Italiya va Avstriya davlatlarining texnologiyalari asosida turli o'lcham va dizayndagi poyabzallari tayyorlanmoqda, — deydi qo'shma korxonada rahbari Dilshod Murtillayev.

Yarmarkada o'z mahsulotlarini namoyish qilaymiz. Bu kabi tadbirlar hamkorlikda korxonalar bilan o'zaro tajriba almashish, yangi hamkorlar topishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirning tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi Murodjon Azimov so'zga chiqib, yarmarkaning sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tdi.

Yarmarka bugun ham davom etadi.

Jahongir BOYMURODOV  
("Xalq so'zi")

## YOSHLAR SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI MUSHTARAK SA'Y-HARAKATLAR

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari kengashi (OHICHK) Yoshlar kengashining oltinchi yig'ilishi ikkinchi kuni ham turli forum hamda uchrashuvlarga boy bo'ldi.

Uning doirasida tashkil etilgan O'zbekiston — Rossiya yoshlar forumida mamlakatimiz Yoshlar siyosati va sport vazirligi mutasaddilari, xorijiy va mahalliy ekspertlar hamda yoshlar qatnashdi.

## Forum

Forum davomida "O'zbekiston — Rossiya o'rtasida yoshlar siyosati sohasida hamkorlik istiqbollari", "O'zbekiston — Rossiya davlat yoshlar siyosatining xususiyatlari", "Ko'ngillilik, bu — salohiyatni ochish va yoshlarni barqaror rivojlanish va mamlakatlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash yo'lida birlashtirish platformasidir", "O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati salohiyatini ta'lim va fan sohasida innovatsion loyihalar prizmasida mustahkamlash" mavzularida

taqdimotlar tinglandi. O'zbekiston hamda Rossiya yoshlar jamoat tashkilotlari va vakillarining ikki tomonlama hamkorligi borasida sessiyalar o'tkazildi.

Ikki kun davomidagi seminar-treninglar har ikki davlat yoshlari uchun ham qiziqarli bo'ldi, — deydi Ko'ngillilar markazlari uyushmasining xalqaro loyihalar markazi rahbari, rossiyalik Leyla Badalova. — Fan, ta'lim, tadbirkorlik yo'nalishlarida tanlovlar o'tkazish borasida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga kelishib olindi. Biz ushbu yo'nalishdagi aloqalarini yanada mustahkamlashga

tayyormiz. Forum doirasida yoshlar siyosati borasidagi kelgusi rejalarni ham belgilab oldik.

Shuningdek, O'zbekiston — Ozarbayjon yoshlarining ikkinchi forumi ham bo'lib o'tdi. Unda ikki xalq yoshlari uchun manfaatli bo'lgan ko'plab masalalar o'rtaga tashlandi. Jumladan, "Mamlakatlarda turizm salohiyati va o'ziga xos xususiyatlari", "Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar", "Yoshlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish" kabi mavzularda davra suhbatlari uyushtirildi.

— Yoshlar tadbirda bugun dunyo o'g'il-qizlarini qiynab kelayotgan bir nechta muammolarni ilgari surdi, — deydi ozarbayjonlik ishtirokchi Ali Abdullozoda. — Jumladan, radikalashuv, ya'ni yoshlarning yo'g'oyalariga berilishining oldini olish, ayni muammolarni yechish va uni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish

kerak, nimalarga e'tibor qaratish lozim, degan savollarga javob izlandi. Va bu forum yoshlar uchun katta bir muloqot maydoni bo'ldi.

Tadbir doirasidagi yana bir forum — O'zbekiston — Qozog'iston yoshlari ikkinchi kongressi ham yuqori saviyada tashkil etildi. Ushbu tadbirda aytilgideki, bugun jamiyatda nafaqat bir davlat, balki ko'plab mamlakatlar uchun xavf solib turuvchi omillar mavjud. Ularga qarshi kurashishda yoshlarning o'zaro bir-birini anglagan holda hamkorlik qilishi va salbiy g'oyalarga yo'g'irilgan har qanday harakatlardan uzoq bo'lishi nafaqat ma'lum bir mamlakatlar rivoji va kelajagi uchun, balki insoniyatning istiqbolini uchun ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



Umuman olganda, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash O'shlar kengashining 6-yig'ilishi, Yosh liderlar forumi va uning doirasida o'tkazilgan uchrashuvlar MDHga a'zo davlatlar doirasida yoshlar siyosati sohasida keyingi hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilashda muhim platforma vazifasini o'tadi.

Abdulaziz YO'LDOŠEV  
("Xalq so'zi")



Keçhagi yomg'ir. Bundan kim quvonmadi?! Hamma xursand bo'ldi. Men esa dunyoga sig'madim, yomg'irga qulochimni yoydim. Ajib bir mo'jiza!

— Nima, umringizda yomg'ir ko'rmaganmisiz?

Ha, menga xuddi shunday savol berishdi.

Ko'plar yomg'irning nimaligini, mohiyatini, sinoatini bilmaydi. Falak hamda Yer bilan hayot rishtalari-la bog'landi. Suv — hayot. Yomg'ir — hayot!

Mammunligim tog'dan-da balandladi. Sababini tushuntiraymi? Bir boshidan aytсам, siz ham "Ha, gapingizda jon bor" deysiz.

## Tuyg'u

Bu yil bahor payti ko'z ko'rib quloq eshitmagan hol ro'y berdi. Termizda yo'lda boryapman. Ikki qadam nari ko'rinmaydi. Tuman emas, chang qopladi. Uylar, mashinalar, odamlar, daraxtlar, osmon, xullas, yer-u ko'k chang-to'zoning ichida.

To'g'ri, afg'on shamoli, goho kelardi. Chang shamol, to'zon qiynardi. Bu safar yo'q. Boshqacha. Yana kun bo'yi. Ziq bo'lib ketasiz. Ko'nglingiz notinch. Nega bunday? Bu chang qayerdan keldi? Nima uchun bunchalar to'zon. Hatto oqshom tushayotganday. Ko'zingizga dunyo qorong'u. Go'yo bu chang ketmaydigandek. Chang yog'averadigandek, tinimsiz qoplab turaveradigandek.

Termiz tarixida afsona, deysiz. To'g'ri, lekin bo'lganday qilib gapirishadi-da. Termiz — "shahri g'ulg'ula". Bozorda obodlik tengsiz. Bozorning g'alag'ovuri Hirotga yetib borgan. Chin davlatidan Bag'dodgacha Termizga savdo qilish uchun kelishgan. Ko'p yillar o'tgan. Termiz dunyo shahriga aylangan. Bir kun nogahon dovul boshlangan. Chang to'zon go'yo qorong'ulik. Chang qirq kun yoqqan. Ha, adashmadingiz, chang yoqqan. To'xtovsiz. Chang yog'averagan. Shahri g'ulg'ula jim bo'lib qolgan.

Shular xayolimdan o'tyapti. Lekin ko'z o'ngimda yomg'ir! Shovullab-shovullab yog'ayotir. U Sizni bilmayman-u men ichimimdan yayradim. Daraxtlar boshqacha yashillanyapti. Maysalarni, gullarni, nihollarni ko'rsangiz, borliqqa to'ymay boqasiz. Ilohiy yomg'ir, deysiz. Olamni poklayapti-da? Atrofdakuz, biroq hamma tomon bahordagiday. Daraxtlar hazinligini unutyapti. Bahor keldi, deb o'ylayapti, nazarimda.

Boysunga Xidir Chorshanbiyevga, hoji boboga telefon qildim. Termizda "self" bo'lib yog'yapti, yurakni hapqitirib shovullayapti. Ariqlar yomg'ir suviga to'lgan. Jilmayasiz-da... chunki, bu ariqlar suv ko'rmaganiga qancha bo'ldi?! Butun shahar yomg'irlatib sug'orishga o'tgan...

Xidir hoji bobo hayajonda, xursand... — Do'lob-do'lob yog'yapti. Tog'lar, yo'llar — hamma Boysun yomg'irining ichida. Toshqinlayapti. Tovlar boshqar qarab turganday.

— Bezovta bo'lmayapsizmi? — Yomg'irni bilgim kelyapti-da.

— Nimaga bezovta?

— Tog'dan sel kelib qolsa...

— E-e, hech xayolimgayam olmbaman. Yomg'irni sog'oinib qolganman. To'rt tomchi tushib, ko'rinmay ketardi. Bu baland tog'ning yomg'iri bo'lib yog'yapti. To'yar oshni ko'z biladi. Ko'nglim to'lyapti. Xudoyim beraman, desa beraveradi. Chelaklab yog'yapti.

Xidir hoji bobo bilan suhbat o'sha qo'shiqni yodimga tushirdi. Xayolingizga keldi-a?!

So'xtotin, so'zma xotin, Ko'lankasi maydon xotin.

Yomg'ir yog'sin, ho'l bo'lsin, Yer-u jahon ko'l bo'lsin.

Boysunda bu qo'shiqni ko'p eshitganman.

"Yomg'ir yog'sin, ho'l bo'lsin"ning tarixi uzoq.

1000 — 2000-yil naridan keladi bu ohang. Nihoyatda qadimiy. Tarix qiziq. Ilgari ham yomg'irni sog'oinib qolgan paytlar ko'p bo'lgan. Doim yomg'ir yog'ib turganida, bu qo'shiq, ikki ming yil narida qolib ketardi. Kelyapti, aytilyapti, yomg'ir so'rashyapti bor ko'ngil bilan.

Do'loblanib, shovullayapti, yomg'ir yog'yapti. Hayotning o'zi buyuk qo'shiq. "Yomg'ir bergil, sultonim"lar ham ermak uchun aytilmagan. Bunda tabiatning donishmandligi bor. Biz suvni hamisha ham qadrlamaymiz. Suvni ifloslantiramiz, suvni "oltin" deb bilmaymiz.

Shunday davrlarda, go'yo bu "oltin"ning hayot ekanligini odamlar tushunib yetishi uchun yomg'irni bermay qo'yayotgan bo'lsa-chi? Chang nima-yu, suv nima? Anglasin, deyaptimikan, ona tabiat?! Anglasin, "oltin"ni asrasin deyapti. Bilmaymiz-da, bir hovuch suv million-million oltinga teng. Shunday damlar bo'ladi, oltinni suvga aylantirilmaysiz. Lekin suv doimo — oltin! Tabiat bizga dars o'tyapti, suvning oltinligini sekin-asta o'rganib boryapmiz.

Kuni kecha yoqqan yomg'irni siz tanidingizmi? Men tanidim. U mening do'stim...

"Juda qiziqsiz-a, yomg'ir ham do'st bo'ladingmi?" Shu gap ko'nglingizdan o'tdi. Lekin men rostini aytapman. Qanday qilib do'st bo'lib qoldim bu yomg'ir bilan?!

Hovlimizga 50 tuplar chamasani anor ekkandim. Rosa ishlar edim. 30 — 35 yoshlardaman. Aytсам ishonmaysiz, har bitta anor 1 kilo va undan ko'p ham tosh bosardi. Anorni ko'rganingizda edi, san'at asari! Rangida nur o'ynaydi. Har qanday ko'zni sehlraydi. Unga tikilgan odam soatlab yonidan ketolmaydi. Dunyoning to'qqizinchi mo'jizasi. Quvaning anori uning oldida tovuqning tuxumi. Dashnabdiliklar kelib, "Bu navni qayerdan topdingiz?" deydi.

Xo'sh, shu anor qachon pishadi? 50 tupni birma-bir ko'raman. Anor hosilidan yerga egilgan. Hozirgacha ko'z oldimdan ketmaydi.

Kundalik tutadigan odamim bor. Unda yozilgan, har yili 6-7-oktabr kunlari dovul, chang va yomg'ir! Har yili shu paytda yomg'ir yog'adi. Anorlarni go'zal qilib yuvadi. Ertasiga quyosh charaqlaydi. Sir-u asror shundaki, shu yomg'ir keladi, anorlar pishadi. Yomg'irgacha sho'r bo'ladi, yomg'irdan keyin shirinlashadi, asallashadi. Bunday anorni tutgan kishi, jannatga borib ham tamshanib yuradi. "Qani, o'sha anordan ko'lsa edi", deydi. Kundalikni yana varaqladim. Bu yomg'ir, asosan, 5 — 7-oktyabr kunlari yoqqan. Shu yomg'ir yog'ib boshlasa, do'stim keldi, der edim. U bog'imga barakasini, nurini to'kardi.

Yomg'ir do'stim uzoq yillar kelmadi. Anorlar qirgilib ketdi. Do'stimni ko'p sog'indim. Boshqa yomg'irlarni tanimayman. O'sha kuni 6-oktabr... Do'stim kelib turibdi. Suyunganimdan quchoqlashib ko'rishdim. Yomg'ir ko'zlarimdan o'pdi. Men yomg'irni bag'rimga bosdim. Bir sirli hol, otam "Yomg'ir yog'di, mezon uchdi, endi hamma narsa pishdi!" der edilar. Shu yomg'irdan so'ng

osmonda oppoq mezonlar uchadi. Ungacha mezonni ko'rmaymiz. Mezon qayerdan keladi?! Bobolardan so'rasam, "Bilmaymiz" deyishdi.

Bu, balki shu oktabrning birinchi o'n kunligida yog'adigan yomg'irning sirdir.

Xayolimdan o'tayotgan gap shuki, bu yomg'irni G'afur G'ulom hazratlari mendan ming karra ko'proq bilganlar, shekilli?! Sababini angladingiz-a?

Alloma sho'ir yozadi:

Qirquyak yomg'iri shivirlab o'tdi, Cho'pon qo'chqorlarga tashlaydi nazar. Kelasi ko'klamda qo'zi ko'p bo'lar, Alhazar, yaramas ko'zdan alhazar.

Balki bu Qirquyak yomg'iri emasmi?! Yana kim biladi, deysiz. Lekin faylasuf

Osmonning yomg'iri yerning ostiga ham yog'adi. Rostdan! Yomg'ir shovullab yog'ayotganida qo'shni qishloqdagi noyob Cho'tboy bobo yodimga tushdi. G'ayritabiyy eshitishi bor edi. Hayotdan o'tib ketdi.

Qishloqda kim ichadigan suv uchun quduq qazdiraman, desa, boboni izlardi. Cho'tboy bobo hovlining bir necha joyiga qulog'ini qo'yib eshitadi. U paytlarda quduq qaziydigan texnikalar yo'q. Cho'tboy bobo ancha bilgir. Yerning ostida qayerda suv bor, aytib beradi. Qatorasiga bir necha yil yomg'ir-qor yog'ishi kamayib ketsa, "Quduq qazib o'tirma, bu yerdan suv qochibdi. Suvni topib ololmaysan. Jovin (yog'ingarchilik) serob bo'lsa, suv qaytadi. Keyin quduq qazasan" der ekan.

Do'loblanib, shovullayapti, yomg'ir yog'yapti. Hayotning o'zi buyuk qo'shiq. "Yomg'ir bergil sultonim"lar ham ermak uchun aytilmagan. Bunda tabiatning donishmandligi bor. Biz suvni hamisha ham qadrlamaymiz. Suvni ifloslantiramiz, suvni "oltin" deb bilmaymiz.

Shunday davrlarda, go'yo bu "oltin"ning hayot ekanligini odamlar tushunib yetishi uchun yomg'irni bermay qo'yayotgan bo'lsa-chi? Chang nima-yu, suv nima? Anglasin, deyaptimikan, ona tabiat?! Anglasin, "oltin"ni asrasin deyapti. Bilmaymiz-da, bir hovuch suv million-million oltinga teng. Shunday damlar bo'ladi, oltinni suvga aylantirilmaysiz. Lekin suv doimo — oltin! Tabiat bizga dars o'tyapti, suvning oltinligini sekin-asta o'rganib boryapmiz.

shoirimiz haq deb, o'ylayman. Kelgusi yil bahorida qo'zi ko'p bo'ladi. Aytishadi-ku, bir tomchi suvdan dengizning holini biladilar: sho'rmi, shirinmi? Ehtimol mening "do'stim" endi yomg'irlar, qorlar, ko'p bo'lishidan xabar berayotgandir?! Tog'larga, adirlarga, yerlarga do'lob-do'lob yomg'irlar, kiyiklarning ko'ksiga uradigan qorlar yog'sa, ne ajab?! Daryolar to'lib oqsa, ariqlar pishqirib, suvlar dalalarga shoshsa... Dehqon qaddini kerib, "O'-o", bu yil suv mo'l bo'ldi, baraka toshdi. Oллоhim nurini to'kdi" deb, hosil bayramida g'ururlansa...

Bu yomg'ir sirlarga to'la. Bu yomg'ir — hayot ko'zgusi. Kutaverib ko'zimiz to'rt bo'ldi. Bahorni ko'rdingiz-ku, gullar ochilar-ochilmis, qovjirab qoldi. O'tlar, gyo'harlar, maysalar yerga yopishganicha bulutlardan suv so'radi. Bulutlar o'tib ketaverdi. Yomg'ir yog'madi. Cho'ponlar tayog'iga suyanib og'ir o'yg'a toldilar. Yomg'irning hayot ekanligini cho'ponku cho'pon, daladagi g'allasiga, g'o'zasiga, qovun-u tarvuziga suv olib kelolmay asabi chaqmoqlangan dehqonlar ham yuragidan tushundim.

Toshboy bobo 80 yoshdan oshdi. Bog'ining ichida bir xayollarda boradi.

— Dunyoning tashvishini ko'tarib yurgandaysiz. Qadamingiz og'ir-og'ir...

— Suv yo'q, suv yo'q.

Bog'bon o'ychan boqadi.

— Bular shaftoli, mana bular bodomlar...

Suv kamligidan sentabrga yetmay bargini to'kyapti. O'zni ko'ring, qanday issiq bo'ldi.

Suvsizlikka chidamsiz daraxtlar qurib qoldi. Endi shuni ham o'ylamasak bo'lmaydigan. Surxondaryoda quyosh lovullaydi. Saratonning jazirasida, quyoshning tig'ida, olvoning ichida bardosh bilan turgan nihollarga rahmat.

Xayolimdan o'tyapti. Bu yomg'irdan bog'bon bobo Bobotoqqa aylandi-yov. Boshi osmonga yetdi.

Kuzatib turib, anglaganday bo'laman.

Aytishlaricha, Cho'tboy boboning gapi doim to'g'ri chiqqan.

Hovlida bir tup ulkan bodom daraxti. Suv ichmasdi. Suvlamasdim. Suv ichganday o'sardi, tuyardi. Hayron qoldim: "Bodom suv ichmasa ham bo'laveradi". Falanqin gardishini qarang, bu yil yozning kunida bargini to'kaverdi. O'ylayman, atrofidagi ariqlarda to'lib suv yoqqan. Yer osti suvi ildiziga kelib turgan. Ariqlar qurib, goh-goh suv keladi. Bodomning ildiziga suv yetmay qoldimi? Yer osti suvi pasayib ketdimi?

Ha, tushundim. Yog'ayotgan yomg'ir yetti qavat yerning ostiga ham yog'yapti ekan-da. Olti qavat osmon bilan yetti qavat yer qanchalar tutashib ketgan. Kengroq qarasangiz, yog'ayotgan yomg'ir olis-olisidagi qaysirdi ummon-okean bilan bog'langan. Hatto quyosh-u oy, yulduzlar bilan. Hatto odamlarning o'yi, fikri, qilayotgan ishlari mubolag'a, desangiz ham aytgim kelyapti. Boru borliqning niyati bilan tutashdir.

...Yomg'ir yog'ib o'tdi. Bugun quyosh charaqlab turibdi. Yomg'ir suvi yetib boriyotqo'! Issig'u, nur-u, havoning mehrida dasht-u adirlarda cheksiz urug'lar nishlamoq niyatini his etyapti. Hayratlanasiz, necha kun o'tib sahrolar ham maysalanadi, yashillanadi, noyabrning boshida mayingina yomg'ir yog'adi.

Yomg'irlar bir yaxshiliklar, qut-barakalarining, aziz nasibalarning ko'payayotganidan darak bermoqda. Charaqlayotgan quyoshga boqing, ko'ngillarga qanchalik yaqin. Quyosh qalb bilan qo'l uzatayotganday, suv yomg'irlariga payvasta nur yomg'irlari yog'yapti.

Dur-u gavharlar yog'yapti O'zbekistonga!

Mengnor OLLOMUROD,  
shoir.

Surxondaryo viloyati

# HUQUQIY DAVLATNING FIDOYI HUQUQSHUNOSI

(PROFESSOR MIRZAYUSUF RUSTAMBOYEVNING ILMIY-AMALIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR)

## Ehtirom

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat'iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy qoidalar to'g'ri qo'llanishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug'lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda. O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz".



fan va yuridik ta'lim rivoji yo'lida ham ilmiy-nazariy, ham tashkiliy-pedagogik asoslarda o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan milliy huquqshunos kadrlarning eng peshqadamlaridir. Ham taniqli olim, ham tashkilotchi rahbar sifatida ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'lgan Mirzayusuf Rustamboyevning faoliyati serqirra va sermahsul.

Mirzayusuf Rustamboyev 1979-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni bitirib, shu oliy o'quv yurtida o'qituvchilikdan Toshkent davlat yuridik instituti (hozirda — universitet) rektorigacha bo'lgan lavozimlarda uzoq yillar samarali faoliyat yuritgan. Olim asos solgan jinoyat huquqi yo'nalishi bo'yicha ilmiy maktab butun dunyoda tan olingan. Ushbu ilmiy maktabdan hozirga qadar 11 nafar fan doktori va 29 nafar fan nomzodi yetishib chiqdi. Bugungi kunda ham olimning ko'plab shogirdlari yuridik fanning dolzarb muammolari bo'yicha muvaffaqiyatli ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Bundan tashqari, Mirzayusuf Rustamboyev — yuridika sohasiga oid ko'plab darsliklari va o'quv qo'llanmalari, monografiyalari va risolalar muallifi. Ayniqsa, olimning "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat

huquqi kursi" nomli o'zbek va rus tillaridagi 5 jildlik kitobi, qariyb 70 ta darsligi, 30 ga yaqin o'quv va 30 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalari, 15 ta monografiyasi, salkam 40 ta risolasi, 160 dan ziyod ilmiy maqola hamda 550 ga yaqin ilmiy ishlar talabalar orasida qo'lma-qo'l bo'lib, ilmiy doiralarda ham behad qadrlanadi.

Shuningdek, Mirzayusuf Rustamboyev — jonkuyar davlat va jamoat arbobi sifatida ham nom qozongan. Xususan, u 2004 — 2009-yillarda Oliy Majlis Senatining turli qo'mita va komissiyalari faoliyatiga rahbarlik qildi. Oliy ta'lim tizimining ko'zga ko'ringan vakili, iqtidorli ilm-fan namoyandasi sifatida davlat va jamoat ishlarida hamisha faollik ko'rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda polkovnik M. Rustamboyev — O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti rahbari. Ushbu ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasasida kursantlarning sifatli va namunali ta'lim olishlari uchun barcha zarur sharoit yaratilishi natijasida universitetning ilmiy salohiyati 2017-yildagi 10 foizdan 2023-yilda 75 foizga o'sdi.

Vatanimiz ilm-fani va yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasi yo'lidagi jonkuyarligi tufayli Mirzayusuf aka "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" faxriy unvoni va "Mehrsaxovat" ko'krak nishoni, Ikkinchi darajali "Shonsharaf" ordeni kabi yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Bu esa, hech shubhasiz, fidokorona xizmatlarga berilgan munosib baho va ehtirom ifodasidir.

Shu bilan bir qatorda, Mirzayusuf Rustamboyev Turkiya, Rossiya, Belarus, Qozog'iston harbiy akademiyalarining medallari va ko'krak nishonlari, Olmaota akademiyasining faxriy professori unvoni bilan taqdirlangan. Bu, albatta, taniqli o'zbek olimining yuridik fan va ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan salmoqli hissi e'tirofidir.

Shuni ta'kidlash joizki, keyingi yillarda polkovnik M. Rustamboyev

rahbarlik qilayotgan O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 24 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi bilan anglashuv memorandumini va hamkorlik shartnomalari imzoladi. Mirzayusuf aka ana shu hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish maqsadida AQSH, Fransiya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi bir qator xorijiy mamlakatlarda bo'lib, o'zaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarda faol ishtirok etdi.

Bugungi kunda mamlakatimizning yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy zaminida milliy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish, shiddatli va keng ko'lami islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish davr talabiga aylandi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda mustaqillikning o'tgan 32 yili mobaynida birinchi marotaba 7 yilga mo'ljallangan uzoq muddatli va qamrovdir milliy taraqqiyot dasturi — "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlandi.

Ushbu dasturlamal hujjatda jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko'rsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Bu ulug'vor va sharaflil vazifalar, shubhasiz, yurtimizning bilimli va tajribali, matonatli va jasoratli, fidoiy insonlari qatori professor Mirzayusuf Rustamboyev zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yuklaydi. Hurmatli olimimizga xalqimiz farovonligi va yurtimiz ravnaqi yo'lidagi sharaflil ishlarida omad va muvaffaqiyatlar tilaymiz. Binobarin, davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, yangi O'zbekiston orzusi barchamizning fidokorona mehnatimiz, g'ayrat-u shijoatimiz tufayli real haqiqatga aylanmoqda.

**Akmal SAIDOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik.

## Xalq amaliy san'ati

# ZARGARLIK MAHSULOTLARI NAMOYISHI

Xorazmda zargarlik azaldan xalq amaliy san'atining bir ko'rinishi sifatida keng rivojlangan. Qadimda Xiva shahri oltin va kumushdan tayyorlangan zeb-ziyatlar savdosining muhim chorahalaridan biri sanalgan. Bugungi kunda ham viloyatda 140 nafarga yaqin hunarmandlar zargarlik faoliyati bilan shug'ullanadi.

Keyingi yillarda zargarlik tarmog'ini tiklash va rivojlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar, jumladan, ishlab chiqaruvchilarga qimmatbaho metallardan foydalanish imkoniyatining berilishi natijasida mahalliy zargarlik mahsulotlari tayyorlash hajmi oshdi.

Prezidentimizning 2019-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni tufayli zargarlik brendlari targ'ibotini kuchaytirish, mamlakatimizda zargarlik ko'rgazmalari va yarmarkalarini tashkil etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ko'rgazma savdolarida faol ishtirokini ta'minlash maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmog'ida.

Urganch shahrida uyushtirilgan zargarlik ko'rgazma-savdosi ham ayni shu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar natijasi bo'lib, unda nafaqat xorazmlik ishlab chiqaruvchilar, balki taniqli zargarlik korxonalari, hunarmandlar, savdo

tashkilotlari o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

— Biz bu ko'rgazmaga o'zimiz tayyorlagan bir necha turdagi oltin va kumush taqinchoqlar bilan keldik, — deydi zargar Abdulhamid Karimov. — Xorazmdagi bu ko'rgazma-savdo mahsulotlarimizning o'ziga xos targ'ibotida muhim omil bo'ldi, desak, xato bo'lmaydi. Bu sohada mehnat qilayotgan hunarmandlar bilan tanishdik, o'zaro tajriba almashdik.

Tadbinning ochilish marosimida so'zga chiqqanlar ta'kidlaganidek, mamlakatimizda ichki bozorda sotuvga chiqarilayotgan zargarlik buyumlarining ma'lum qismi xorijdan import qilinmoqda. Milliy zargarlik brendlarning targ'iboti esa import o'rni bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yordam beradi.

**Odilbek O'DAMBOYEV**  
(“Xalq so'zi”).

# AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHDA YANA BIR QULAYLIK

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filialida kombustologik va toksikologik reanimatsiya bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi.

## Tibbiyot

Mazkur bo'limda kuyish jarohatini olganlar, zaharlanganlar, buyrak yetishmovchiligi xastaligi bilan og'ir holatga tushgan bemorlarga malakali tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bo'limda xalqaro standart talablari darajasida muolaja ishlarini olib borish uchun barcha qulaylik yaratilgan. Bu yerda xorijiy klinikalarda malaka oshirgan, muayyan tajribaga ega malakali shifokorlar faoliyat yuritadi.

— Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilish yo'lida juda katta ishlar amalga oshirilayotganini guvohi bo'ldik, — dedi bo'lim ochilishiga bag'ishlab o'tkazilgan marosimda so'z olgan Akademik Pavlov nomidagi 1-Sankt-Peterburg davlat tibbiyot universiteti

professori Vadim Teplov. — Mazkur bo'lim ham jahon andozalari asosida jihozlangani bilan e'tiborimizni tortdi. U bemorlarga tezkor shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatib, ko'plab insonlarga o'z oilasi bag'riga salomatligini tiklagan holda qaytishdek baxtni tuhfa etadi, albatta.

Aytish joizki, filialda so'nggi besh-olti yil davomida umumiy qiymati 25 mlrd. so'mdan ziyod bo'lgan zamonaviy qabul-diagnostika va jarrohlik blokrlaridan iborat inshootlar, shuningdek, 135 o'rinni bino qurildi. Filial kecha-yu kunduz ishlovchi tibbiy kislorod ishlab chiqarish stansiyasiga ega bo'ldi, 1,5 mln. AQSH dollari miqdoridagi tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

**Istam IBROHIMOV**  
(“Xalq so'zi”).

# BILIMLI INSONLAR — JAMIYATNING “OLTIN FONDI”

yoki savodxonlik darajasini yaxshilash orqali jinoyatchilikning oldini olish mumkin

Xabaringiz bor, shu yilning 28-iyul kuni Farg'ona shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda ayni yo'nalishdagi bugungi kunning og'riqli masalalari ochiq-oshkora tahlil etildi, mas'uliyatsiz rahbarlarga keskin choralar ko'rildi hamda bu boradagi muammolarni isloh qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

## Bugunning gapi

Huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida gap borar ekan, ta'lim va tarbiya jarayonini yanada kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini keng yo'lga qo'yish, daxldorlik va mas'uliyat uyg'unini yaxshilash, zamonaviy bilimlar borasidagi savodxonlik darajasini oshirish muhimligi ta'kidlandi. Bularning barchasi jamiyatning umumiy savodxonligi, keng bilim va dunyoqarashga ega ekanligi bilan bevosita bog'liq.


Darhaqiqat, bugungi globallashuv sharoitida sayyoramizda savodxonlikning o'rni va ahamiyati juda ham ulkan. Mamlakatimizda ham savodxonlik darajasini oshirish maqsadida ta'lim tizimining barcha bo'g'inini isloh etilib, ilm-fan rivojiga katta e'tibor qaratilmog'ida.

Bugungi kunda ta'lim tizimi, savodxonlik va ilm-fan nechog'li shiddat bilan rivojlanib borayotgan bo'lsa, jinoyatchilikning turlari, shakli va ko'rinishlari ham ko'payib borayotgani barchamizga yaxshi ma'lum. Shu bois ba'zi hamyurtlarimiz savodxonlikka e'tibor qaratmagani sababli turli aldov yo'llari orqali jinoyat qurboni bo'layotgani yoki jinoyatchiga aylanib qolayotgani ham ayni haqiqatdir.

Ushbu maqolada jinoyatchilikka sabab bo'layotgan ayrim muammolarni aynan savodxonlikni yaxshilash orqali ijobiy hal etish imkonligini tushuntirishga harakat qilamiz.

## Ilmli — yutadi, ilmsiz — yutqazadi

Xalqimizda "Har yaxshining bir yomoni bor", degan hikmatli na'jiz aytilmagan. Bu bilan hamma yaxshi narsa (odam)



tufayli uyali aloqa vositasiga kelgan kod aytiladi. Natijada kodni qo'lga kiritgan firibgar plastik kartadagi barcha mablag'ni o'zlashtirib oladi.

Buning yechimi esa — e'tiborli bo'lish va elektron savodxonlikni oshirishdir. Boisi hech bir inson shaxsiy hujjatlari, tashkilot va korxonalar muhrlari hamda plastik kartani begonaga bermasligi, kompyuter va uyali aloqa vositalariga kelgan kod yoki parolni o'zgalarga aytmassligi zarur. Elektron quqimlar va dasturlar asrida yashayotgan ekanimiz, bu boradagi savodxonligimizni oshirmasdan iloj yo'q. Savodxonligimiz yetarli darajada bo'lmagan taqdirda esa elektron hamyon yoki plastik kartada pul saqlashda nihoyatda ehtiyotkor bo'lgan ma'qul.

## G'oyibdan kelajak baxt bir afsona...

Bugun o'z talab va istaklariga chegara qo'ya olmaslik — oson, tez va mehnatsiz daromadga erishish istagi, ya'ni nafs ko'pchilikning pand yeb qolishiga sabab bo'lmoqda. Chunki ayrim kimsalar, ayniqsa, yoshlar bir zumda boyib ketish yoki baxtli bo'lib qolishni istaydi. Buning ham eng katta sabablaridan biri — ilmsizlik va e'tiborsizlikdir.

Shuning uchun ham endilikda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ba'zi yoshlarning o'zgalardan qarz olgan holda yoki o'z oila a'zolarining pul

mablag'larini elektron qimorlarda yutqazib qo'yganligi haqida ko'p eshitaymiz. Achinarlisi, ularning ba'zilari hatto o'z joniga qasd qilishgacha bormoqda.

Shuningdek, ko'p hollarda ijtimoiy tarmoqlar orqali chet eldagi begona shaxslardan juda katta miqdorda pul mablag'i yutib olganingiz yoki katta miqdorda meros qolgan haqida elektron maktublar yuboriladi. Bilingchi, ular firibgarlar bo'lib, katta pulga oson erishish istagingizdan foydalangan holda pulingizni o'zlashtirishni maqsad qilgani aniq.

Buning yechimi ham aynan ilm-fan va e'tibordir. Dunyoviy yoki diniy ilmda bo'lsin, barchasida muvaffaqiyatga mehnat, sabr va bilim bilan erishilishi o'rgatiladi. Agar bunday toifadagi yigit-qizlar ham o'zlarining oltin teng vaqtini ilm olish va o'z kelajagi uchun e'tiborli bo'lishga sarflashsa, keyingi pushaymonga hojat qolmaydi.

Xulosa shuki, o'qish va bilim olishga yengiltaklik bilan munosabatda bo'lmang. Akademik shoirimiz yozganidek, taqdirin qo'l bilan yaratur odam, g'oyibdan kelajak baxt bir afsona!

## Iste'mol madaniyati yoki xavf oyoq ostida

Savdo do'konidan xarid qilingan mahsulotning ishlab chiqarish sanasi yoki foydalanish yo'riqnomasini o'qib ko'rish shunchalik qiyinmi? Yo'q, albatta. Ammo bir qarashda oddiy shu ishga ham ko'pchilik hafsala qilmaydi, ya'ni o'z hayoti va sog'lig'iga befarq bo'ladi.

Albatta, yurtimizda xaridni amalga oshira oladigan insonlarning savodxonligi bor. Lekin qunt va hafsala yo'q. Natijada bunday e'tiborsizlik jinoyat yuz berishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, sotib olinayotgan mahsulot ozio-ovqat, farmatsevtika buyumi yoki iste'mol tovari bo'lsa, bu halokatli yakun topishi ham hech gap emas.

Aslida buning yechimi juda oddiy. Shunchaki sotib olayotgan mahsulotningizning yaroqlilik muddati va foydalanish yo'riqnomasiga e'tibor qaratish kifoyi. Bu ko'p vaqt yoki mashaqqatli mehnat talab qilmaydi. Shu bois muddatli o'tgan mahsulotni iste'mol qilib, aziyat



checkkandan ko'ra, ozroq e'tiborli bo'lish yoki atigi 10 — 15 soniya vaqt ajratib yo'riqnoma va yorliqlarini o'qib ko'rish osnonroq emasmi?

Xalqimiz maqolida aytilganidek, kasalni davolashdan ko'ra oldini olgan ma'qul va foydalidir.

## Aql-zakovat — baxt va farg'at kaliti

Hayotda bilim egallamay, izlanmay, o'rganmay, ko'r-ko'rona o'zgalarning so'ziga ishonib ketaverishning oqibati yaxshilikka olib kelmaydi. Afsuski, bugungi kunda ana shu kabi qusurlar tobora qiyin ahvolda qolayotgan insonlar ko'p uchraydi.

Odam savdosi, firibgarlik va aldov yo'lli bilan o'zgalar mulkini o'zlashtirish kabi jinoyatlar ham bu muammoning sabablaridan biridir. Va yana bunday idizi savodsizlik va e'tiborsizlikka borib taqaladi. Ommaviy-axborot vositalari orqali bunday jinoyat qurboniga aylanib qolmaslik hamda bunday kimsalarga aldanmaslik haqida qayta-qayta ta'kidlanishi ham soddaligi yoki yetarlicha bilimiga ega emasligi sababli ba'zi hamyurtlarimiz jinoyatchilar tuzog'iga ilinib qolayotgani achinarlidir.

Bu muammoning yechimi ham savodxonlik bilan bog'liq. Yuridik yoki milliyaviy savodxonligi yetarli bo'lmaganlar biror tanishi chet elga chiqib, ma'lum bir qisqaroq muddat ichida avtomobil sotib olgani yoki yangi uy qurganini ko'rsa, tegishli rasmiy idoralarga murojaat qilish o'rniga, shu tanishining so'ziga laqqa ishonadi. Bunday muammoning oldini olishning eng yaxshi yo'lli rasmiy ma'lumot yoki vakolatli shaxslarga murojaat qilishdir.

## O'qish va o'rganish hech qachon kech emas

O'qish, bilim olish imkoniyatidan unumli foydalanmaslik — bugungi kunning yana bir muammosidir. Ba'zi insonlar yillar davomida o'qish orqali bilimlarini mustahkamlab boradi. Ammo bilimlar charchatib, yangilanib turmasa, yillar davomida u unutilishi, zamondan orqada qolib ketish hech gap emas.

Aytaylik, ko'pchilik biror-bir shartnoma imzolayotgan vaqtida shartnoma shartlari, o'zining huquq va majburiyatlari, kasbiga oid kitoblar, gazeta va jurnallarni o'qib o'tirmaydi. Odatga aylanib qolgan bir xildagi ishini bajarib, o'qish-o'rganishga vaqt ajratmaydi.

Bu ulaming jinoyat qurboniga aylanishiga yana bir sabab bo'lishi mumkin. Demak, o'qishdek buyuk imkoniyatdan o'z vaqtida foydalanmagani ikki karra yutqazadilar. Bu muammoning yechimi ham — savodxonlik. Savodsiz inson o'z haq-huquqlarini bilmaydi va o'zini himoya qila olmaydi. Savodsizlik insonni o'zi bilmagan holda jinoyatchilik qurboniga yoki jinoyatchiga aylantirib qo'yishi mumkinligini aslo xayoldan soqit qilmang!

Mutasar aytganda, insonni har qanday qiyin vaziyatda ham himoya qiladigan yoki qutqaradigan bu — uning o'zi va bilimidir. Shu nuqtai nazaridan ham buyuk mutafakkir bobomiz Imom al-Buxoriyning: "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" degan so'zlari bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan. Demak, jinoyatchilik ko'chasiga kirishning oldini olishda savodxonlik darajasi nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Unutmang, bu muammolarga faqat va faqat teran aql va tafakkor orqali ijobiy yechim topish mumkin.

**Abbosxon YUSUPOV,**  
Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi.

## Xalq so'zi Narodnoe slovo

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

## Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041. 32 669 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



### TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulkiga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir F. Boboyev.  
Musahhah Sh. Mashraboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.02 Topshirildi — 03.00

1 2 3 4 5 6